

“MAQSAD” KONSEPTINI IFODALOVCHI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMASHUNOSLIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Nasridinov Muxridin Vaslidin o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti “Ingliz filologiyasi” kafedrası

E-mail: mvnasridinov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756633>

Annotatsiya. Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida “maqsad” konseptini ifodalovchi maqol, matal va frazeologik birliklarning tarjimashunoslik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida maqsad, orzu, niyat, umid va intilish tushunchalarini ifodalovchi paremiologik birliklarning izomorfik va allomorfik jihatlarini aniqlanib, ularni tarjima qilishda qo‘llaniladigan funksional va kommunikativ muqobillik tamoyillari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: tarjimashunoslik, paremiologiya, maqsad konsepti, izomorfizm, allomorfizm, kommunikativ muqobillik, lingvomadaniyat, frazeologizm.

Bugungi globallashuv sharoitida xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi tarjimashunoslik fanining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Tarjima xalqlar o‘rtasida o‘zaro muloqot vositasi, madaniyatlararo ko‘prik hamda bilim va tajriba almashinuvining muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlar, maqol va matallar, frazeologik birliklar tarjimasida nafaqat til tizimlari, balki xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi.

Tarjima nazariyasida eng murakkab birliklardan biri paremiologik birliklar hisoblanadi. Chunki maqol va matallarning ma‘nosi ko‘pincha ularni tashkil etuvchi so‘zlarning bevosita ma‘nolaridan kelib chiqmaydi. Ular xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy xotirasini o‘zida mujassamlashtirgan holda, ko‘chma va ramziy ma‘nolarni ifodalaydi. Shu sababli bunday birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha semantik va pragmatik xatolarga olib keladi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan “maqsad” konsepti inson tafakkurining universal kategoriyalaridan biri bo‘lib, u niyat, orzu, umid, intilish va muvaffaqiyat tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadga yo‘naltirilganligi sababli mazkur konsept barcha tillarda turli verbal vositalar orqali ifodalanadi. Biroq uning lingvistik voqelanishida milliy-madaniy xususiyatlar ham mavjud bo‘lib, ular tarjima jarayonida qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Ingliz tilidagi “Hope is a good breakfast, but a bad supper”, “The road to Hell is paved with good intentions”, “Hope deferred makes the heart sick”, “Where there is a will, there is a way”, “The sky is the limit” kabi paremiologik birliklar maqsad, niyat va umid tushunchalarini ifodalasa, o‘zbek tilida ularga “Umid o‘lmas, rizq kamaymas”, “Yaxshi niyat – yarim davlat”, “Ushalmagan orzular yurakni o‘rtaydi”, “Irodali insonning yo‘li ochiq”, “Ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q” kabi muqobillar mos keladi.

Mazkur birliklarni qiyosiy tahlil qilish ularning izomorfik va allomorfik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Izomorfik jihatlar:

- maqsadga erishish uchun mehnat qilish g‘oyasining universalligi;
- umid va orzuning inson hayotidagi muhim o‘rni;
- muvaffaqiyatning harakat va intilish bilan bog‘liqligi;
- niyat va maqsadning axloqiy qadriyat sifatida talqin qilinishi.

Masalan, ingliz tilidagi “Where there is a will, there is a way” maqoli ham, o‘zbek tilidagi “Ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q” iborasi ham insonning irodasi va qat‘iyati har qanday qiyinchilikni yengishga qodir ekanligini ifodalaydi.

Allomorfik jihatlar:

- metaforik obrazlarning farqlanishi;
- diniy va milliy qadriyatlarning turlicha aks etishi;
- pragmatik ma’nolarning o‘ziga xosligi;
- til birliklarining funksional qo‘llanishidagi tafovutlar.

Masalan, ingliz tilidagi “The road to Hell is paved with good intentions” maqoli yaxshi niyatning o‘zi yetarli emasligini ta’kidlasa, o‘zbek tilida “Yaxshi niyat – yarim davlat” iborasi ezgu niyatning o‘zini ijobiy qadriyat sifatida baholaydi. Bu esa ikki xalqning dunyoqarashi va aksiologik qarashlaridagi ayrim tafovutlarni ko‘rsatadi.

Tarjima amaliyotida bunday birliklarni o‘g‘irishda bir necha strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. To‘liq muqobillik:

- Wish come true – Orzusi ushalmoq;
- Keep hope alive – Umidingni so‘ndirma.

2. Funksional muqobillik:

- Break a leg – Omad tilayman!;
- The sky is the limit – Ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q.

3. Izohli tarjima:

- Build castles in the air – amalga oshishi qiyin bo‘lgan xayollar va rejalarga berilmoq;
- Pipe dream – amalga oshmaydigan orzu yoki xom xayol.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “maqsad” konseptini ifodalovchi paremiologik birliklarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha kommunikativ samaraning yo‘qolishiga olib keladi. Masalan, “Break a leg” iborasining “Oyog‘ingni sindir” tarzidagi tarjimasi mantiqsiz va tushunarsiz bo‘lib, uning haqiqiy pragmatik ma’nosi – “Omad tilayman!” orqali ifodalanishi lozim.

Shuningdek, ingliz tilidagi ko‘plab maqol va matallarda individual muvaffaqiyat, shaxsiy rivojlanish va kasbiy yutuqlar ustuvor bo‘lsa, o‘zbek tilidagi paremiologik birliklarda jamoaviylik, sabr-toqat, ezgu niyat va ma’naviy qadriyatlarga ko‘proq urg‘u beriladi. Bu holat maqsad konseptining universalligi bilan bir qatorda uning lingvomadaniy xususiyatlarini ham namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, “maqsad” konseptini ifodalovchi paremiologik birliklar ingliz va o‘zbek tillarida umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, ularning lingvistik voqelanishida sezilarli milliy-madaniy tafovutlar mavjud. Ushbu birliklarni tarjima qilishda funksional, kommunikativ va pragmatik muqobillik tamoyillariga amal qilish tarjimaning adekvatligini ta’minlaydi. Mazkur birliklarni qiyosiy-tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish esa tillararo va madaniyatlararo munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Salomov G'. *Tarjima tashvishlari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Musayev Q. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent.
3. Karamatova K. *Proverbs*. – Toshkent: Mehnat, 2000.
4. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Jizzax, 2006.

5. Hoshimov G'. Kognitiv tilshunoslikda konsept nazariyasi va uning tasnifi masalalari.
6. Nasridinov M. V., Norhujaev M. O. Comparative Typology of Verbal Means Expressing the Concept of “Goal” in Languages with Different Systems // *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*. – 2021. – Vol. 2. – No. 12. – P. 51–55.
7. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.